

Talabalarga imkoniyat!

Hammamizga ma'lumki prezidentimiz tomonidan biz yoshlarga juda ko'p imkoniyatlar yaratilmoqda. Shunday imkoniyatlardan biri "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" tomonidan o'rtacha o'zlashtirishi 86% dan yuqori bo'lgan talabalar uchun to'lov kontrakt summasining 35% qismini to'lab berishdir. Ana shu kabi imkoniyatlar bilan tanishtirish maqsadida 31-yanvar kuni "Yerdan foydalanish va yer kadastri" fakulteti iqtidorli va faol talabalari o'rtasida davra suhbatini o'tkazildi.

Suhbatni institutimiz Yoshlar ittifoqi yetakchisining 1-o'rinbosari Mutalov Alisher hamda faol iqtidorli yoshlar bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi Axmadov Safarali o'tkazishdi. Suhbat davomida talabalar bu imtiyozga qanday erishish hamda belgilangan nizom bilan tanishishdi.

Aziz talabalar bu imkoniyatni qo'ldan bo'y bermaylik!

Ze'ro, biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar cheksiz va bu imkoniyatlardan foydalanish biz yoshlar uchun ham qarz, ham farz. Bizdan talab qilinadigani a'lo o'qish va faol bo'lish!

Agar sizning ham o'rtacha o'zlashtirish ballingiz 86% dan yuqori bo'lsa va faol bo'lsangiz, institutimiz yoshlar ittifoqi xonasiga kelib nizom bilan tanishing va imtiyozga ega bo'ling!

Institutimiz yoshlar kengashi a'zolari sizga har qanday ko'mak bo'lsa berishadi.



"YF va YK" fakulteti yoshlar matbuot kotibi Sh.Hamidullayev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov